

ISSN 2181-8258

DOI prefiksi: 10.69691

ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal



2025-yil

**12-son I qism
(75)**

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Жумаева Феруза Рузикуловна. Переходные явления в морфологии русского языка.....	9
Mirzakarimova Saodat Abdunabiyevna. Folklorining lingvistik va madaniy xususiyatlari: ingliz va o'zbek tillari misolida.....	15
Esbosinova Dilara Ja'abaevna. Balalar shayirlari dóretpelerinde yumor, satira hám didaktika.....	18
Hamrayeva Charos Norboyevna. Ingliz va o'zbek tillarida "sadoqat" konseptining leksik-semantik maydoni va uning tarkibiy tuzilishi.....	21
Dauletiyarova Nigora Kenesbaevna. Nofilologik talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda multimedia vositalarining o'rni.....	24
Homitov Dilovar Lutfullozoda. Klassik fors va hozirgi fors tillarida vujudga kelgan fonologik o'zgarishlar va uning sabablari (undoshlar misolida).....	29
Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi. Ingliz va o'zbek tillarida rieltorlik faoliyatiga oid qisqartmalarning leksik-semantik tavsiflari.....	39
Ostonov O'tkir Yangiboyevish. Tilshunoslikda qishloq turizmi terminlarini tasniflashning qiyosiy tipologik muammolari.....	45
Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi. Izohli lug'atlardagi tarix terminlarining statistik tahlili.....	56
Abdullayev O'lmasbek Xayrullayevich. Talabalarning multimodal savodxonligini oshirishda adabiy matnlarning roli.....	77
Qurbanboyeva Zebiniso Seyilxon qizi. Ayyub she'rlarining ijtimoiy-estetik qimmati to'g'risida.....	84
Rajabbayeva Feruza Rajabbayevna. Zamonaviy matnlarda metaforik diskursning konseptualizatsiya jarayonidagi o'rni.....	111
Базарова Нодира Шамсиевна. Категория уважения к старшим в русской и узбекской языковых картинах мира.....	114
Fozilova Mohigul Farxodovna. Poetik tasvirning she'riyat va nasrdagi o'ziga xosliklari.....	127
Eshmuratov Umidjon Temurovich. O'lim mavzusidagi Xolid Husayniy va o'zbek aforizmlarining qiyosiy tahlili.....	132
Xurramova Dilorom Abduraim qizi. Taqlid so'zlarning pragmatik tahlili.....	135
Sapayeva Feruza Davlatovna. She'riy tarjimada vazn muammosi.....	146
Usenova Gulmira Abillaevna. Te'fingvistikaliq kategoriya sipatida.....	153
Atajanova Nilufar Fayzullayevna. Xorazmlik shoirlar ijodida uchlik she'riy janri xususida.....	157
Xudaybergenova Gulbaxor Shuxrat qizi. Ingliz aforizmlarida "ish" va "vaqt" konseptining birgalikdagi lingvopragmatik ifodasi.....	176
Tairova Maxfuza Abdusattorovna. Mamlakatshunoslik terminlarini tadqiq etish usullari.....	181
Utemuratova Gulzira Bazarbaevna. Almasiqlardir tekst komponentlerin baylanistirirwdagi ornir.....	184
Kutibaeva Araylim Berdibay qizi. Qaraqalpaq qaharmanliq dastanlarinda frazeologiyaliq antonimiya qubilisi.....	190
Ayaqulov Nurbek. Shukurulloev Sunnatullo. Ingliz tili hissiyot terminologiyasining kognitiv va lingvistik o'lchamlari.....	218
Botirova Zebuniso Solijon qizi. Ingliz tilidagi siyosiy munozaralarda verbal agressiya strategiyalari: diskursiv-pragmatik tahlil.....	222
Barotov Javoxir Ravshan o'g'li. Futbol leksikasining ingliz va o'zbek tillaridagi semantik va lingvokulturologik tadqiqi.....	237
Turayeva Dilbar Meyliyevna. Zamonaviy tilshunoslikda tinish belgilarining tadqiqiga yangicha yondashuvlar.....	248
Xushboqova Zarnigor. Antonimik tarjimaning badiiy asarlarda ahamiyati.....	253
Muzaffarova Mushtariybegim Mirshodovna. Siyosiy tilshunoslik: uning tarixi, vazifasi va akademik integratsiyasining asosiy muammolari.....	256
Ruzmatova Gulnora Kulmamatovna. Anekdotik nutqda kontekst va implikatura yumorning pragmatik mexanizmlari sifatida.....	259
Xidirova Shahnoza G'afforovna. Proverbial frazeologizmlarda genderning ifodalanishi.....	262
Qodirova Mahzuna Mahmudovna. Konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish muammosi.....	265
Azizova Nafisa Orifjon qizi. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida ifoda vositalarining qo'llanilishi.....	269
Moxira Saparova Fayzullayevna. Tabiiy tilni qayta ishlashda sun'iy intellekt modellari.....	271
Ametova Ulbo'sin Kamiljanovna. Najmiddin Kubro hamda kubroviylikka oid manba va tadqiqotlar.....	279
Hamidova Nodira Sattorovna. G'afur G'ulom nasridagi diaxronik morfologik evolyutsiya.....	286
Pulatova Dildora Dilmuradovna. Badiiy matnlarda aldangan kutilganlik hodisasining estetik vazifasi.....	289
A.K.Xamidov. Murod Muhammad Do'st asarlarida xalq og'zaki ijodi unsurlarining lingvokulturologik ifodasi.....	292
Xudoyberganov Sirojiddin Meylibayevich. Ingliz va o'zbek tillaridagi turg'un fe'llarning qiyosiy tahlili.....	301
Bo'riyeva Aziza Abduvait qizi. Ingliz va o'zbek tillarida qarindoshlik terminlarining ekvivalent va noekvivalent turlari.....	310
Azimova Dildora Maxmudjanovna. Til tizimindagi buxgalteriya va audit terminologiyasi.....	355
Ruziyeva Nafisa Zarifovna, Qudratova Kamola Jamol qizi. Evfemizmlar ingliz va o'zbek nutqida siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida.....	359
Ochilova Dilfuza Hasanovna. Qissada inson va tabiat mutanosibligi (Normurod Norqobilov hikoyalari misolida).....	390
Begjanov Xalmuxammet Shirmametovich. Abay shoirning turkmancha tarjimalari tahlili.....	393
Mengnarova Maftuna Toshboy qizi. Ingliz tilidagi rang komponentli maqollarning stilistik xususiyatlari.....	397
Kadirov Timur Raxmatilloevich. Koreys-o'zbek adabiyotining yangi davri.....	400
Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna. Xitoy filologik tadqiqotlarida madaniy tafovutlik va lakunarlikning o'zaro munosabati.....	404

XITOI FILOLOGIK TADQIQOTLARIDA MADANIY TAFOVUTLIK VA LAKUNARLIKNING O'ZARO MUNOSABATI

*Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna, Tarjimashunoslik,
tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi, Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti, dotsent (PhD)*

THE INTERRELATION BETWEEN CULTURAL DIFFERENCES AND LACUNARITY IN CHINESE PHILOLOGICAL STUDIES

*Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna, Higher School of
Translation Studies, Linguistics and International Journalism
Tashkent State University of Oriental Studies,
Associate Professor (PhD)*

ВЗАИМОСВЯЗЬ КУЛЬТУРНЫХ РАЗЛИЧИЙ И ЛАКУНАРНОСТИ В КИТАЙСКИХ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

*Исмагуллаева Наргиза Расулжановна, Высшая школа
переводоведения, языкознания и международной
журналистики, Ташкентский государственный университет
востоковедения, доцент (PhD)*



<https://orcid.org/0000-0001-8306-5376>

e-mail:
ismatullayeva.nargiza@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoy filologik tadqiqotlarida, xususan tarjimashunoslik, tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik doirasida madaniy tafovutlik va leksik lakunarlik hodisasining o'rganilishi tahlil qilinadi. Xitoy tilshunosligida lakunani ifodalash uchun qo'llaniladigan terminlar hamda ularning ilmiy talqinlari yoritiladi. Xitoylik olimlarning lakunani asosan milliy xos so'zlar bilan tenglashtirishga moyil yondashuvi tanqidiy baholanadi. Maqolada lakuna va milliy xos leksika tushunchalarining farqlanishi asoslanib, lakunarlik hodisasining lingvomadaniy mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, xitoy tarjimashunosligida leksik lakunalarni tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: lakunarlik hodisasi, leksik lakuna, madaniy tafovut, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, xitoy tilshunosligi, madaniy yuklangan so'zlar.

Abstract: This article examines the phenomenon of cultural disparity and lexical lacunarity in Chinese philological studies, particularly within translation studies, linguistics, and linguocultural research. It analyzes the key Chinese terms used to denote lexical lacunae and discusses their interpretations in Chinese academic discourse. The paper critically addresses the tendency among some Chinese scholars to equate lacunae with nationally specific vocabulary. A clear distinction between lexical lacunae and culture-specific words is proposed, highlighting the linguocultural nature of lacunarity. Additionally, the study systematizes major translation strategies employed in Chinese translation studies to render lexical lacunae.

Keywords: lexical lacunarity, cultural differences, linguocultural studies, translation studies, Chinese linguistics, culture-specific vocabulary.

Аннотация: В статье анализируется проблема культурной дифференциации и лексической лакунарности в китайских филологических исследованиях, прежде всего в переводоведении, лингвистике и лингвокультурологии. Рассматриваются основные китайские

termini, ishlatiladigan laqunlar, hamda ularning interpretatsiyasi ilmiy asarlarda xitoylik olimlari tomonidan o'rganilgan. Xitoy tilida ekvivalenti yo'q so'zlar, laqunlarni ifodalash uchun “词汇空缺” *cíhuì kòngquē* (“leksik kemtiklik”), “词汇空白” *cíhuì kòngbái* (“leksik bo'shliq”), “词汇空位” *cíhuì kòngwèi* (“leksik ochiq joy”), “词汇矛盾” *cíhuì máodùn* (“leksik ziddiyat”) kabi terminlar qo'llaniladi. Xitoy tilshunoslari tomonidan lakuna borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda “词汇空缺” *cíhuì kòngquē* (“leksik kemtiklik”) va “词汇空白” *cíhuì kòngbái* (“leksik bo'shliq”) tushunchalari ostida, asosan, madaniy lakunalar ishlangan bo'lib, terminlar orasida aniq chegaralar qo'yilmagan. Madaniy lakunalar, o'z navbatida, xitoy tilida “文化词汇空缺” *wénhuà cíhuì kòngquē* (madaniy lakuna), “文化词” *wénhuà cí* (madaniy leksika, kulturema), “文化负载词” *wénhuà fùzàicí* (madaniy yukka ega so'z), “文化特色词” *wénhuà tèsècí* (madaniy xos so'z), “文化局限词” *wénhuà júxiàncí* (madaniy chegaralangan so'z) deb yuritiladi.

Ключевые слова: лексическая лакунарность, культурные различия, лингвокультурология, переводоведение, китайская лингвистика, культурно маркированная лексика.

KIRISH. Xitoy filologik tadqiqotlarida, xususan, tarjimashunoslik, tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda madaniy tafovutlik va lakunarlik hodisasi Deng Yanling (邓艳玲 *Dèng Yànlíng*)[1], Tan Zaysi (谭载喜 *Tán Zàixǐ*)[2], Wang Bingchin (王秉钦 *Wáng Bǐngqīn*)[3], Chen Sirong (陈喜荣 *Chén Xǐróng*)[4], Guo Aysyan (郭爱先 *Guō Àixiān*)[5] singari olimlar tomonidan o'rganilgan. Xitoy tilida ekvivalenti yo'q so'zlar, lakunlarni ifodalash uchun “词汇空缺” *cíhuì kòngquē* (“leksik kemtiklik”), “词汇空白” *cíhuì kòngbái* (“leksik bo'shliq”), “词汇空位” *cíhuì kòngwèi* (“leksik ochiq joy”), “词汇矛盾” *cíhuì máodùn* (“leksik ziddiyat”) kabi terminlar qo'llaniladi. Xitoy tilshunoslari tomonidan lakuna borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda “词汇空缺” *cíhuì kòngquē* (“leksik kemtiklik”) va “词汇空白” *cíhuì kòngbái* (“leksik bo'shliq”) tushunchalari ostida, asosan, madaniy lakunalar ishlangan bo'lib, terminlar orasida aniq chegaralar qo'yilmagan. Madaniy lakunalar, o'z navbatida, xitoy tilida “文化词汇空缺” *wénhuà cíhuì kòngquē* (madaniy lakuna), “文化词” *wénhuà cí* (madaniy leksika, kulturema), “文化负载词” *wénhuà fùzàicí* (madaniy yukka ega so'z), “文化特色词” *wénhuà tèsècí* (madaniy xos so'z), “文化局限词” *wénhuà júxiàncí* (madaniy chegaralangan so'z) deb yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Rus tilshunosligiga bevosita murojaat qilgan xitoylik olim Chin Jyandung (秦建栋 *Qín Jiàndòng*)ning ishida esa “leksik bo'shliq” “空缺” *kòngquē* so'zi bilan, “lakuna” tushunchasi esa rus olimi Yu.A.Sorokindan iqtibos keltirgan holda “空白” *kòngbái* tarzida beriladi[6,62]. Bizningcha, Chin Jyandung tomonidan lakuna mohiyatini ochib bera oladigan mazkur termin o'rinli tanlangan. Zero, “空” *kòngquē* so'zi “yetishmovchilik”,

“kemtiklik”ni, “空白” *kòngbái* so'zi esa “bo'shliq”ni anglatadi.

Tarjimashunos Yang Shijang (杨仕章 *Yáng Shìzhāng*)ning tadqiqotidagi markaziy tushuncha “madaniy element” (文化素 — *wenhuasu*) hisoblanadi. U buni tarjimaning asosiy birligi, ya'ni madaniy jihatdan xos axborotni tashuvchi birlik sifatida talqin etadi [7,113]. Muallif nuqtayi nazariga ko'ra, muvaffaqiyatli tarjima oddiy lingvistik kod almashinuvi emas, balki madaniy elementlarning bir muhitdan boshqasiga to'laqonli “madaniy transplantatsiyasi”dir [7,31]. Uning ta'kidlashicha, butun mexanizm filtr kabi ishlaydi: avval tarjimon “begona” madaniy kodni anglaydi, so'ng uni qanchalik darajada qabul qiluvchi madaniyatga kiritish mumkinligini hal qiladi va nihoyat, uni boshqa tilda ifodalash uchun mos texnik vositani tanlaydi[7,36].

Lakunarlik hodisasi haqida so'z ketganida, xitoylik tilshunos olim Xu Venjong (胡文仲 *Hú Wénzhòng*) lakunani quyidagicha ta'riflaydi: “Madaniyat va tildagi tafovutlar sababli, bir tilda mavjud so'z uchun boshqa tilda ekvivalent yoki muqobil so'z bo'lmasligi mumkin. Bunday hodisani leksik bo'shliq deb ataymiz”[1]. Olima Chen Sirong (陈喜荣 *Chén Xǐróng*) esa leksik lakunlarni o'ziga xos madaniy bo'yoqqa ega va ifoda shaklni keltirib chiqargan nomilliy madaniyat bo'shlig'idir [4], deb hisoblaydi.

Guo Aysyan (郭爱先 *Guō Àixiān*) Chen Sirongning fikrlarini rivojlantirib, shunday yozadi: “Leksik lakunarlik turli millatlar o'rtasidagi madaniy tafovutlar sababli bir tilda maxsus predmet-hodisa yoki tushunchani ifodalovchi so'z yoki uning ma'nosi boshqa bir tilda teng bo'lgan variantini topa olmaydi, natijada nomilliy madaniyat bo'shlig'i yuzaga keladi”[5].

Jang Desin (张德鑫 *Zhāng Déxīn*) “Xitoy va ingliz tillarida madaniy jihatdan nomuqobil so'zlar” nomli maqolasida turli madaniyatlarda tafovutlarning o'xshash tomonlarga nisbatan

ko'pligi, ilmiy terminologiyaning kam uchrashi, shuningdek, xitoy va ingliz tillaridagi leksik ma'nolarning noekvivalentlik, nomuqobillik jihatlarini qayd etadi. Madaniy chegaralangan so'zlar, so'zlarning ko'chma ma'nosi, metaforik ma'nosi kabi semantik nomuqobillik hodisasi [8]ni tahlil qiladi.

Tadqiqotchi olim Day Li (戴莉 *Dài Lì*)ning "Lingvomadaniy muloqotda ingliz va xitoy tillaridagi leksikaning aloqadorligi va lakunarligi hodisasi"[9] hamda Jang Ning (张宁 *Zhāng Níng*)ning "Lingvomadaniy muloqotda lakunarlik hodisasi"[10] maqolalarida lakunarlik hodisasining lingvomadaniy jihatlarini o'rganilgan.

MUHOKAMA. Yuqorida qayd etilgan xitoylik tilshunoslarning ishlarida lakunarlik hodisasi lingvomadaniyat sohasining tadqiqot obyekti sifatida qabul qilingani, xususan, milliy xos so'zlarning lakunar birliklar sifatida o'rganilganligi ayon bo'ladi. Bu o'rinda xitoylik olimlarning fikrlariga qo'shila olmaymiz. Binobarin, lakuna va milliy xos so'zlar bir-biridan farqli tushunchalar hisoblanadi va ularni o'rganishda turli metodlardan foydalaniladi.

Xitoylik tadqiqotchi Tan Zaysi (谭载喜 *Tán Zàixǐ*)ning "Tarjimada semantikaning qiyosiy tahlili" nomli maqolasida lakuna hodisasi haqida quyidagilarni zikr etadi: "Madaniy individuallik lug'at boyligida o'z ifodasini topadi va bunda leksik bo'shliq hamda leksik to'qnashuv yuzaga keladi". Olim leksik lakunalarni "so'zma-so'z tarjima" qilmaslik kerakligini uqtiradi. Chunki so'zma-so'z tarjimada so'zga so'z to'g'ri keladi, lekin tarjima matnida qoniqarli natijaga erishib bo'lmaydi. Shuningdek, Tan Zaysining ta'kidlashicha, tarjimon semantik tarjima yoki "semantik va so'zma-so'z tarjima" usullaridan foydalanishi va madaniy sohadagi izohlarni ham kiritishi mumkin[2].

Vang Bingchin (王秉钦 *Wáng Bǐngqīn*)ning "Tarjimashunoslik madaniyati" nomli ilmiy tadqiqotida leksik lakunarlik hodisasini to'rt: subyektiv lakunarlik, kommunikativ faoliyat, madaniy makon va nutqiy lakunarlik turlariga ajratadi. Olimning fikricha, "asliyat tilida mavjud bo'lgan va boshqa madaniyat vakili tushunmaydigan, anglay olmaydigan, noto'g'ri tasavvur hosil qilishi mumkin bo'lgan narsa va hodisalarni ifodalaydigan va boshqa millat

madaniyatida bo'shliqni keltirib chiqaradigan so'zlar lakuna"[3] hisoblanadi.

Tarjimashunos olimlardan yana biri Jou Yuyjong (周玉忠 *Zhōu Yùzhōng*) lakunarlik hodisasi haqida so'z yuritib, quyidagilarni qayd etadi: "Odatda, tillar o'rtasida mos paritet (teng) unsurlar mavjud bo'ladi. Biroq shu bilan birga, til va madaniyatdagi tafovut tufayli bir tildagi so'zga boshqa bir tilda mos keladigan yoki ekvivalent bo'la oladigan so'z topilmasligi mumkin. Bunday holatda lakunarlik hodisasi yuzaga keladi"[11]. Jou Yuyjong o'zining "Ingliz va xitoy tillarida tarjima qilinmaslik hodisasi" nomli ishida tillar o'rtasidagi leksik lakunarlikni o'ziga xos bir tabiiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u tarjima qilina olmaslik hodisasining nisbiyligini ko'rsatadi. Uning fikricha, umuman tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar ko'p uchramaydi. Shunga ko'ra bunday so'zlarning tarjimasi har doim mukammal bo'lmas-da, lekin buni hal qilish mumkin. Ta'kidlash joizki, Xitoyda leksik lakunalarni tarjima nuqtayi nazaridan o'rganishga bo'lgan qiziqishning kun sayin kuchayib borganligini kuzatish mumkin. XIX asrning 50-yillarida Jang Peyji (张培基 *Zhāng Péijī*) avvaliga o'zining "Xitoy va ingliz tillari leksikasi ohang xususiyatlari tarjimasi tadqiqi" nomli ishida ingliz va xitoy tillaridagi o'zaro tarjima qilish usullarini ko'rib chiqadi. So'ngra, olim tarjimadagi leksik lakunarlik hodisasi va ularni tarjima qilish usullari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borib, samarali natijalarga erishadi.

NATIJALAR. Boshqa bir guruh olimlar esa muayyan bir tarjima usullarini taklif qiladilar. Masalan, tarjimashunos Jin Xuykang (金惠康 *Jīn Huīkāng*) "Lingvomadaniy muloqot tarjimasi" nomli ishida e'tiborni leksik lakunarlik hodisasiga qaratish kerakligini ta'kidlab, ta'sirli usullar sifatida xitoy tili transkripsiyasi bilan yozish, izoh berish yoki transliteratsiya usullari [12]ni qayd etadi. Sun Li (孙力 *Sūn Lì*) "Xitoy va ingliz tillarida leksik lakunarlik hodisasining madaniy omili va tarjima strategiyalari" nomli maqolasida teatr, kiyim-kechak, hayvonot va o'simlik dunyosi, choy, sport, oziq-ovqat, siyosat va iqtisodiyot, din va falsafa, o'lchov va pul birliklari konseptosferasida leksik lakunalarning mavjudligini ko'rsatib, tarjima jarayonida transliteratsiya, so'zma-so'z tarjima, izoh berish,

kalkalash, madaniy almashtirish tarjima usuli, kompressiya va hokazo usullarni ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari tarjimashunos Yan Ping (闫萍 *Yán Píng*)ning "Ingliz tilidan xitoy tiliga tarjima jarayonida leksik lakunarlik hodisasi va strategiyasi" maqolasida leksik lakunarlik hodisasini yuzaga keltiruvchi sabablar, uning tarjimasida qo'llaniladigan so'zma-so'z ko'chirish (transfer), transliteratsiya, kalkalash va izoh berish usullari [13]ga to'xtalib o'tadi.

Xitoy tarjimashunos olimlaridan Tyan Syanje (田仙枝 *Tián Xiānzhī*) va Yang Jinsyue (杨进学 *Yáng Jìnxué*)larning "Lakunarlik" hodisasiga lingvomadaniy mulohaza nazari bilan qarash" nomli maqolasida leksik lakunalarini yuzaga keltiruvchi sabablar til va madaniyat nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Lakunarlik hodisasining tarjima va chet tilini o'rganishdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada lakunaning til va madaniyatni ajratib bo'lmaydigan ifodasi, madaniy tafovutning tilda eng ko'p namoyon etuvchi birlik ekanligi qayd etilgan[14]. Shang Syue (尚秀叶 *Shàng Xiùyè*)ning "Xitoy va ingliz tillarida o'simlik dunyosiga oid so'zlarning lingvomadaniy qiyosi" maqolasida ham lakunalar til va madaniyatning o'zaro aloqasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan[15].

XULOSA qilib aytganda, mazkur maqolada xitoy filologik tadqiqotlarida madaniylik va leksik lakunarlik hodisasi asosan lingvomadaniy tafovutlar bilan bog'liq holda talqin qilinishi, biroq ko'plab tadqiqotlarda lakuna tushunchasining milliy xos leksika bilan aynanlashtirilishi ilmiy jihatdan munozarali ekanligi asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, lakuna muayyan tilda milliy xos so'zning mavjudligi bilan emas, balki tillar va madaniyatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladigan semantik va konseptual bo'shliq bilan belgilanadi. Xitoylik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar va tarjima strategiyalari lakunarlik hodisasining tarjimashunoslikdagi amaliy ahamiyatini ochib bersa-da, lakuna va madaniy xos birliklarni farqlab o'rganish zarurati yanada

dolzarblashadi. Shu bois, lakunarlik hodisasini mustaqil lingvomadaniy fenomen sifatida talqin etish va uni tahlil qilishda kompleks, qiyosiy metodlarga tayanish ilmiy izlanishlarning keyingi bosqichlari uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 邓艳玲. 语义空缺视角下的商务英语翻译研究. 济南职业学院学报, 2017, 第4期.
2. 谭载喜. 翻译中的语义对比试析. 中国翻译 (1), 1982.
3. 王秉钦. 文化翻译学. 天津: 南开大学出版社, 1995.
4. 陈喜荣. 从功能语法语境理论看文化负载词的翻译. 四川外语学院学报, 1998.
5. 郭爱先. 词汇空缺及其可译性. 解放军外语学报, 1998, 21 (5).
6. 秦建栋. 英汉词汇空缺现象刍议. 苏州铁道师院学报, 1999, 16 (2), 62-71. 第62页.
7. 杨仕章. 文化翻译学: 汉、俄、英. 北京: 商务印书馆, 2020.
8. 张德鑫. 汉英词汇文化上的不对应对外. (崔永华主编. 词汇文字研究与对外汉语教学. 北京: 北京语言文化大学出版社, 1998.)
9. 戴莉. 跨文化交际中英汉词汇的偶合和空缺现象. 牡丹江大学学报, 2008, 17 (2).
10. 张宁. 跨文化交际中的语言空缺现象. 学海, 2008, (1).
11. 周玉忠. 英汉对译的不可译现象. 外语研究, 1991.
12. 金惠康. 跨文化交际翻译. 北京: 中国对外翻译出版公司, 2004.
13. 闫萍. 英汉互译中的词汇空缺现象及对策. 安徽文学, 2010, (2)
14. 田仙枝, 杨进学. 从跨文化语言交际角度看“词汇空缺”现象. 武汉冶金管理干部学校学报, 2005, 15 (2).
15. 尚秀叶. 中英语言中植物词语的文化内涵比较. 中北大学学报, 2007, 23 (3).

